

Bolalarni Maktabga tayyorlash jarayonida mehnat tarbiyasining órni.

Abdusalomova Malika Risqul qizi.

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi*

Umirzoqova Ozoda Shokir qizi

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Yosh avlodni har tomonlama mukammal tarbiyalashda mehnat tarbiyasi o'ziga xos o'rinni egallaydi. Mehnat va inson bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Mehnat insonni jonivorlar dunyosiga nisbatan baland darajaga ko'tardi, uning jismoniy va ma'naviy kamol topishiga yordam berdi. Ushbu maqolada bolalarni mehnatga órgatish va ularning ta'lim tarbiyasida mehnatning róli ochib berilgan. Bolalarni mehnatga órgatish usullari va uning samaradorlik usullari va zamonaviy metodlari ochib berilgan, hamda bolalarni maktabga tayyorlashda mehnat tarbiyasining ahamiyati haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit sózlar: *Rivojlanish, mehnat, mehnat tarbiyasi, samaradorlik, ta'lim berish, maktabgacha ta'limda mehnatning ahamiyati.*

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda yurtimizda ilm-fanga munosabat tubdan o'zgarib, ta'lim sohasini isloh etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlarga keng yo'l ochildi. Mehnat tarbiyasining vazifalari ko'p qirralidir. U tarbiyalanuvchilarning mehnat faoliyatiga amaliy va ma'naviy-axloqiy tayyorgarligining juda ko'p tomonlarini qamrab oladi. Mehnat tarbiyasining eng muhim vazifasi yosh avlodda mehnat qilish istagi va intilishini tarkib toptirish hamda ularni ijtimoiy hayotning turli sohalarida mehnat qilishga ruhiy

tayyorlashdan iborat bo'lib, bu yosh avlodda mehnatga ongli va to'g'ri munosabatni shakllantiradi. Bu muhim masalani hal etish yoshlarda mehnatga muhabbat va mehnat ahliga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalashni o'rgatadi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma'qullangan qaroriga muvofiq bolalarni Vatanga muhabbat, mehnatga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga, shuningdek umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash haqida aytib o'tilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatga o'rgatish va uning uziga hosligi va tarbiyaviy ahamiyati bu bolalarni mehnat qilish istagi va intilishini tarkib toptirish hamda ularni ijtimoiy hayotning turli sohalarida mehnat qilishga manan va ruhiy tayyorlashdan iboratdir.

Mehnat turlari bo'yicha axloqiy masalalarni yechish: O'z-o'ziga xizmat qilish - Mustaqillikni, tashqi ko'rinish madaniyatini, ozodalik odatlarini tarbiyalash. Uy ishi - Ishning boshqalarga qaratilishi, o'z ishining sifati uchun guruh oldidagi mas'uliyat. Qo'l mehnati - kuchli irodali harakatlarni, ijodkorlikni rivojlantirish. Tabiatdagi mehnat - Hayvonlar, o'simliklar hayoti uchun mas'uliyatni tarbiyalash. Mehnat turlari juda ko'p va ulardan bolalarni maktabga tayyorlash uchun ahamiyatlisi bu o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish mehnat turidir. O'z-o'ziga xizmat qilish bu bolalar mehnatining bir turi bo'lib, unda bolalar ilk yoshdan boshlab, mustaqil ovqatlanishga, echinib-kiyinishga, o'yinchoqlarini yig'ib qo'yishga o'rgatiladi. Bolalar mehnatining bu turi bolalarni tartibli, intizomli, odobli bo'lishga undaydi. Mustaqillik sifatleri rivojlanadi. Va bu bolalarni maktab ta'limiga tayyorlaydi deyaolamiz.

Bolalarga mehnat tarbiyasini berishda maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab singari ijtimoiy pedagogik muassasalar katta o'rin tutadi. Mehnat tarbiyasini tashkil etishda asosiy jihat shundaki, u bolalarning yosh xususiyatlari, ruhiy va aqliy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Bolalarning imkoniyatlaridan yengil mehnat tarbiyasi ularni zeriktirgani kabi ularning

imkoniyatlaridan o'g'ir topshiriqlari esa bolalarni bezdirib qo'yishi mumkin. Aks holda har qanday qobiliyatli bola ham yetarlicha mehnat tarbiyasini ololmasligi mumkin.

Mehnat tarbiyasida, avval aytilganidek, ta'limi va kasbga yo'naltirish jarayonlarining ham o'zni va ahamiyati katta. Negaki bu jarayonlarda bolalar bevosita tegishli mehnat konikmalarini egallash va ularni mustaqil ravishda ularni qo'llash bosqichlarini o'taydi.

Mehnat ta'limi va mehnat turlari imkon qadar xilma - xil bo'lishi hamda tarbiyalanuvchilarning aqliy, jismoniy imkoniyatlari va xususiyatlariga muvofiq kelishi zarurdir. Misol uchun bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida ular o'zlarining papkalarini ko'tarishni. O'ziga tegishli bo'lgan o'quv qurollarni yig'ishni, bir muddat mashg'ulotda va darsda o'tirgan holda dars tayyorlashni o'rgatib konikma hosil qiladi. Har bir mehnat turi ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat qilish jarayoni asta sekinlik bilan mehnatni oddiy ko'rinishidan po'gonama-po'gona ko'tarilishi hamda ularning maktabga chiqqan davrida o'z bo'sada konikmasi borligini ko'rishimiz mumkin.

Bolalarda insonparvarlik hissini tarbiyalash. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyalanadigan ahloqiy xususiyatlar, xulq-atvor qoidalari orasida insonparvarlik muhim o'rin tutadi. Insonparvarlik hissi ahloq normalari va qoidalari o'rgatish asosida rivojlanadi. Bu bolalarni boshlan'gich qadami deyishimiz mumkin chunki ular maktabga chiqar ekan bu borada bilim, konikmaga ega bo'lishi bu ham mehnatning bir ko'rinishi deyishimiz mumkin.

Mehnat tarbiyasi –bolalarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek muayyan ijtimoiy foydali harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bolalarning har xil faoliyatlarni muvaffaqiyatli egallab olishlari asosan oilada, bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya ishining qay darajada tashkil etilishiga bog'liqdir. Mehnat faoliyatining bola ruhiy rivojlanishiga ta'siri Ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga xos

xususiyatdir. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xil turlari shakllanadi. Ulardan asosiylari: munosabatda bo'lish faoliyati, bilish, buyumlar bilan bo'ladigan faoliyat, o'yin, mehnat va o'quv faoliyatlaridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat tarbiyasi - bu umumiy mehnat qobiliyatlarini rivojlantirishga, psixologik tayyorgarlikni, mehnatga va uning mahsulotlariga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga qaratilgan, shuningdek, bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi faoliyat. Mehnat ta'limi muammolari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda dolzarbdir, chunki bu bosqichda bolada shaxsiy fazilatlar, ko'nikmalar va mehnatga intilish rivojlanadi. Ushbu yosh bosqichida ularning shakllanmaganligi o'quv va kognitiv faoliyatda va keyinchalik mustaqil mehnat faoliyatiga moslashishda to'siq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T.: TDPU 2017 – 264 b.
2. Xalilova Dilnoza Furqatovna. “Bo'lajak tarbiyachilarni ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida”. Science and innovation, Special Issue 4, 3 march 2023. 57-59
3. Abzalxanovna, S. M. (2023). DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL TRAINING IN PROFESSIONAL EDUCATION OF FUTURE TEACHERS. World Bulletin of Social Sciences, 19, 101-103.
4. Xalilova Dilnoza Furqatovna. “Maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lajak tarbiyachilarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish”. Ta'lim sifati – Yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili, Qo'qon 21 iyun 2023 yil. 677-679.
5. D Khalilova. Innovative educational environment as a factor for improving professional competence in developing social relationships in students. - Science and innovation, Volume 2 Issue 1, 2023. 412-413.
6. IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH KARAKALPAK FOLK GAMES
ZR Jumaniyazova - European International Journal of Pedagogics, 2023.9-15

7. Xalilova Dilnoza Furkatovna. Bo'lajak tarbiyachilarni ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. - Science and innovation, Special Issue 4, 2023. 57-59.
8. Artikbayeva, A. A. (2023). Development of Professional Competencies of Students Based on Social Cooperation. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(2), 354-356.
9. Namazbayeva, L. (2023). CONTENT, FACTORS AND PRINCIPLES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR RESEARCH ACTIVITY.
10. Radjapova, Z. (2023). PEDAGOGIK KOMPETENTLIK–SHAXSGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING MUHIM SHARTI. Science and innovation, 2(Special Issue 9), 393-396.